

Yosh ko'ngil
Yosh ko'ngil ba'zan toshar,

Cheksiz tog'lardan oshar.
Na g'am bilur, na hasrat,
Havas-la to'lib yashar.
Qanoti bor ipakli,
Ko'zlari ko'p tilakli.
Qo'rquv bilmas, charchamas,
Arslon kabi yurakli.
Yosh ko'ngil yoshda bo'lur,
Dengizdek to'lqinlidir.
Amalining yo'lidan
Qaytmaydir, balki o'lur.

1924

Amalim Uchun
Ko'nglim bir oz o'ynasin,
Tilaklarin so'yulasin,
Amalimning parisi,
Qochma, ruhim yayrasin.
Oltin qanotlaring bor,
Sen menga eng nozli yor,
Qorong'i kechalarni
Nuring yashindek yoqar.
Eng suyuqli amalim,
Hayotdagi chechagim!
Ko'ngil sensiz yoshalmas,
Qochma, tutay, malagim!

1924

Qishlog'imni Eslarkan
Tevaragi ko'm-ko'k o'tloq,
Tabiati juda quvnoq.
Totli, yumshoq havosi-la
Na go'zaldi kichik qishloq.
Ko'klarinda qushlar uchar,
Nag'malari ko'ngil quchar.
Tong otarkan, qizil chechak
Bir qiz kabi kulib chiqar.
Bulutlarga yetgan tog'lar,
Kichik-kichik yashil bog'lar.
Xayolimda jilvalanur
Qishloqdagi totli chog'lar.
Oy, yulduzli kumush tunlar,
Qani nozik g'uncha - gullar?
Unutilmas iz qoldirmish
Qishloqdagi porloq kunlar.

1924

Chirchiq Bo'ylarida
Go'zal Chirchiq, na uchun,
To'lqinlaring yo'q o'lmish?
Ko'ngillarni eritar
Musiqilaring sinmish?
Bir o'ksiz bola kabi
Yuzingda ma'yuslik bor,
So'yla, bir xasta qalbi
Senchami, alam tuyar?
Men keldim sohilingga,
Oshiqman kulishingga.
Ko'nglima doston so'yla,
Nay kabi go'zal kuyla,
Keng Chirchiq suvi, ko'pir,
Arslondek sen-da hayqir!
Tog'lardan, tepalardan osh,
To'lqinining-la har yon tosh!
U choqda men ham qaynab,
To'lqiningda o'ynayman.
To'fonlaringda quv nab,
Quloch otib yayrayman.

1924, 29 mart

Ovchiga

Otma, qushchani, qanotin qoqsin!

Go'zal nag'malar ko'nglidan oqsin.

Erklikdan boshqa - bormi bir go'zal?

Qo'y, ovchi, uni chechaklar taqsin.

Pirillab ko'kka qanot qoqishi,

Malaklar kabi go'zal boqishi.

Eng nafis she'rdir, ovchi, sen angla!

Borliqda bitsin qonning oqishi!

Ko'm-ko'k yog'ochda o'girmish, bir boq!

Kim bilur, uning qalbida bu choq

Qanday tilaklar to'lib-toshadir,

Otma qushchani, o'ynasin ozroq!

1924, 14 sentabr'

O'zbek Qiziga

Nechun sening yuzlaringda

Qayg'u-alam o'ti toshar?

Yoniq, mahzun kuylaringda

Qalb ezuvchi bir nola bor.

Ko'kda kezgan erk qushparin

Nag'masini tinglolmading.

Zulmatlarni otashlar-la

Yoqib, erkni qucholmading.

Bukun ortiq bahor o'ldi,

Har yoq chechak bilan to'ldi.

Boqchalardan sen uzoqda,

Yuzikg yaproq kabi so'ldi.

Ey, Sharq qizi, endi qo'rqma,

Kishanlardan, zanjirlardan,

Qulliklarni yiqib tashla!

Olqish sepay chechaklardan...

1924

Oltin Qo'ng'izga

Ko'klam tuyg'ulari

Qo'ying, oltin qanotlarin bog'lamang,

Erka ko'ngli chechaklardek yashnasin.

Tutqunlikda uning qalbin dog'lamang,

Bo'stonlarda bir oz kulib yayrasin!

Ana ko'klam har tomonga she'r sochmish,

Boqchalarda ochilmishdir chechaklar.

Lablaringdan o'par qushlar - malaklar,

Oltin yuzin go'zal quyosh ham ochmish.

Oltin qo'ng'iz, qanotlaring qayrilmish,

Yana sevgi dardlarini kuylaysan.

Parilardan yoniq diling ayrilmish,

Anglat menga, dardingnimi so'ylaysan?

Oyog'ingga ip taqilmish, kel uzay!

Sen-da bir oz yaproqlarda kul, yayra,

Erkinlikning yo'llarini kel tuzay,

Ruhim uchun sen nag'ma chal, bir sayra!

Oltin qo'ng'iz, ipni uzdim, ko'kka uch!

Sevganingning yuzlaridan o'pib, quch.

1924

Erkin Qush

Malak kabi go'zal bir qush

Tol shoxiga kelib qo'ndi.

Dedim: "Qushcha, yonimga tush,

Yosh ko'nglimga alam to'ldi.

Bir oz kuyla, she'ring so'yla,

Mahzun ruhim qanot qoqsin

Sirli, go'zal nag'malaring

Amalimning shamin yoqsin".

"Yondim erkning savdosida,

Qafaslardan juda bezdim,

Boqchalarning hijronida

Yuragi qon tutqun edim.

Qo'y, chaqirma ko'kka uchay,

Erkinlikka endi chiqay:
Bahor kelib, har yoq kuldi,
Chechaklarni bir oz quchay!"
Deya qushcha har yon boqdi,
Tiniq ko'kda qanot qoqdi.
1924

Qushlar, Qochingiz!
Ko'ngil ochildi,
Lolalar kuldi.
Bahor qizidan
Nurlar sochildi.
Har yoq chechak-gul,
Noz qilur sunbul,
Faqat dardlidir
Qafasda bulbul.
Qushlar, qochingiz!
Qirlar oshingiz.
Erkin tog'larda
Qanot qoqingiz.
Kimsa ko'rmasin,
Qonlar to'kmasin
Erka ruhingiz
Sira so'lmasin!
1924

Bog'bon Qizi
("Bir esdalik" dan)
Hoy, bog'bon qizi,
Ko'ngil yulduzi,
Nega qoraydi
Toleing yuzi?
Erk-la quvnarding,
Qushdek ucharding.
Kapalak kabi
Chechak qucharding...
Bog'da bulbullar,
Chamanda gullar
Olqish so'ylardi
Senga sunbullar.
Dard quchoq ochmish,
Ko'z yoshing sochmish.
Kulgan choqlaring
Qaylarga qochmish!
Nechun, bir so'yla,
Siniq nay, kuyla,
Go'zal ko'ngilda
Qayg'u-g'am to'la?
Qani u choqlar,
Yashil yaproqlar,
Kuylab tolmagan
G'uncha dudoqlar?
1924

Buloqlar Yonida
Nag'mangiz, hoy, muncha yoniq,
Tinglar sizni butun borliq.
Oyning oltin kokillari
Qo'yningizda ochiq-sochiq.
Shod buloqlar, nag'ma choling!
Cho'ponlarning ko'nglin oling.
Sizga emdi bog'lanmishman,
Qochmang mendan, bir oz qoling!
Bir oz so'ngra quyosh boqar,
Ufqlarga lola taqar.
Bilmam, sizga nalar so'zlab,
Ko'ksingizni o't-la yoqar.
Uvalarga nag'ma sochib,
Cho'pon dilin guldek ochib,
Quvishasiz, shod buloqlar,
Uzoqlarga mendan qochib,

Yosh ko'nglimga jo'shib oqdi
Totli, quvnoq kuylaringiz,
O'ksiz ruhim qanot qoqdi.
Quchsin sizni, qo'l ochingiz,
Ey tabiat shoirlari!
1925

Yosh Yo'lchi
Yo'lim ko'p uzoq,
Amalim porloq:
Orzular toshdi
Ko'ksimda bu choq.
Quturma, dengiz,
Hovliqma, dengiz.
Kichik qayiqni
Irg'itma, dengiz!
Yosh kuchim tolmas,
Tilagim qo'rqmas.
Tog'dek to'lqining
Yo'limni to'smas.
Yosh ko'ngil toshar,
Ko'klardan oshar.
Sevgan yulduzin
Axtarib quchar.

1925, sentabr'
Quyosh Botarkan
Og'ir-og'ir qanot qoqib,
Uvalardan qushlar uchdi.
Tog'-toshlarga chechak taqib,
Ufqlarni quyosh quchdi.
Keng qirlarning erkin yeli
Chechaklardan o'pish oldi.
Buloqlarning erka tili
She'r so'ylab, nag'ma choldi,
Toshdi menda sevgi, amal.
Uzoqlarda yulduz porlar.
Bu oqshomning ruhi go'zal,
Quchog'ida ko'ngil yayrar.
1925

Kutganda
Yo'lingda kutdim,
Hasratlar yutdim.
Hajring-la ko'pdan
O'zni unutdim.
Sen hech kelmading,
Dardim sezmading.
Chamanlar ichra
Birga kezmading.
Avval o'q otding,
Ko'nglim qonatding.
So'ngra, yulduzim,
Qaylarga botding?
Malagim, bir boq!
Borlig'imni yoq.
Oh... yoshlik chog'im,
Bir kuzgi yaproq...

1925
Kapalak
Quvdim bog'larda,
Yoshlik chog'larda
Sen o'rtog'imding
Lolazorlarda.
Pir-pir etarding,
Tashlab ketarding,
Tutqich bermasdan
Ko'nglim ezarding.
Go'zal kapalak!
Senga ne kerak?
Bildim... qalbingda

So'lg'un bir tilak.
Gullar ochildi,
Hidlar sochildi,
Bahor nash'asi
Har yon yoyildi!
Uch, uch, qanot yoz!
Sen titrak bir soz,
Ko'klam she'ridan
Tinglayin bir oz.
1925, 25 dekabr'
Buloq
Hoy buloq, toshqin buloq!
Ko'pirgan shoshqin buloq!
Toshlar bilan kurashib,
Qayerga?.. To'xta, buloq.
To'lqinli senda isyon,
Tovshingda kuchli arslon.
Na darding bor na g'aming,
Toshursan, telba, har yon?
She'ringga to'yolmadim,
Ko'ksingda yashnolmadim.
Sen toshib yo'lga tushding,
Men g'arib borolmadim.
Hoy buloq, jo'shqin buloq!
Ko'nglim ko'nglingga inoq.
To'xta desam, boqmaysan,
So'yla, yo'lingmi uzoq?!
1925, 29 dekabr'
Qish Ko'rinishlari
Har tomonda qor,
Tortishib chana
Bolalar yana
"Qorbo'ron" o'ynar.
So'lg'in bir kulish
Otib qochadi
Ba'zi vaqt quyosh.
Bo'ron, sovuq qish
Borliq sochadi.
Bir dardli qarash.
Kech bo'lsa, jimjit...
Ko'lkalar qoplar.
U yoq-bu yoqda
Chiroqlar yonar,
Titrashib milt-milt.
Borliq nash'asiz,
Muzdek sovuq qor
Yuzlarga urar,
Bo'ronlar o'ynar,
Yo'llar kimsasiz.
Kechalar jimjit,
Faqat uzoqdan
Uvlar dard bilan
Bir boyoqish it.
1926, yanvar'
Chechaklar Terganda
Qo'limda dasta-dasta
So'ldingiz, yosh chechaklar.
Qalbingiz endi xasta,
So'ndimi u tilaklar?
Tog'larda ochildingiz,
Yo'llarga sochildingiz,
Shoirning ko'ngli kabi
Kuldingiz, yoyildingiz.
Yuzingiz to'la hasrat,
Boqdingiz malaklarim!
Na qilay, uzdim faqat,
Ezildi yuraklarim...
1926

O'tinish
Hoy go'zal, menga boqma,
Ko'ksimni o't-la yoqma.
Bir pari kabi kulib,
Qarshimda lola taqma!
Sochlaring tola-tola,
Labimda gizli nola.
Ichimda to'la hasrat,
Naylay, ey voh... bu hola?
Darding-la yondi boshim,
Ko'zlarda qonli yoshim.
Yo'q... Kechir... Endi bir kul,
Sen, ko'ngil orqadoshim!

1926

* * *

Orqangdan yig'lab qoldim,
Ko'ksimni tig'lab qoldim,
Qiz, daryodan osharsan,
Bilmam qayda yasharsan.
Orqangdan yig'lab qoldim.
Sir aralash hayoting...
Gavharlardan marjoning.
Hazin kuylar chalasan,
So'yla, qayon borasan?
Sir aralash hayoting...
Tushimda ko'rdim seni,
Birga olib ket meni.
Dengiz, tog'lar oshaylik,
Cho'pon kabi yashaylik.
Birga olib ket meni.

1926

Nikoh Kuni

Uzoqlardan qo'sh surnayning kuyi sezildi
Qizning qalbi kuz gulidek so'ldi, ezildi,
Ufqlardan boqar edi so'lg'un bir lola,
Qiz qalbida titrar edi siniq bir nola.
Yosh qiz, qaydam, o'z erkini ololmadimi?
Erkin sevgi bog'chasida o'ynolmadimi?
Bog'ga chiqib, o'ksiz kabi har tomon boqdi,
Go'dak chog'lar izi uning ko'ksini yoqdi.
"Xayr endi, chechaklarim, qora bir diyor
Kuchoq ochdi, ketdim agar kelsa go'zal yor,
Mening uchun kulib boqing, ko'nglini oling!"
Degan kabi qiz ko'ngliga qayg'u solardi.
Ne qilsin, oh... totli hislar shunda qolardi.

1926

Turmush Yo'lida

Yo'l ko'p uzun... Har tomonim tog'lik, toshlik.
Surunaman o'tmoq istab bu yo'llardan.
Yana mudhish, qizg'in qumli shu cho'llardan,
Tilaklarim, g'ayratlarim menga boshliq.
Ba'zi vaqtda zahar sovuq quchoq ochar,
Ba'zan quyosh, go'zal ko'klam nurin sochar.
Ba'zan to'lqin bilan kelar turmush seli,
Ba'zan ko'nglim qitiqlaydir tongning yeli.
Yo'q, qaytmayman hech orqaga... kuchim tolmas,
Hayot go'zal, amal buyuk, sel to'solmas.

1926, 24 iyun'

* * *

O'ynab oqqan irmoqlar,
Yashil, nozli yaproqlar
Derlar menga: "Hoy, shoir!
Yoz endi bizga doir!"
Ey kumushdek irmoqlar,
Bahordagi yaproqlar!
Siz she'rimdan ko'p go'zal,
Kulsangiz, kular amal.
Sozi nosoz bu shoir

Ne yozsin sizga doir?
1926, iyun'
Kechqurun
Quyosh sekin bekindi
Qarshimdagi tog'larda.
Borliqning ko'zi tindi
Yolg'iz-dim shu choqlarda.
Qir tuman-la burkandi,
Tog'dan tushdi suruvlar.
O'ynoq qizdek burilib,
Oqardi pastda suvlar.
So'ngra ko'kni yoritib,
Chiqdi sariq bir chechak.
Oqshom ko'nglin ovutib
Allalardi sharsharak.
1926, 2 iyul'
Sharsharak
Chiqar tog'lardan
Hovliqib-shoshib...
Istagan tomon
Chopadir toshib.
Kumushdan oppoq,
Sof ko'ynagi bor.
To'xtamay bir choq,
She'r etib oqar.
Buyuk toshliqlar
Na kurash qilar,
Na uning keskin
Kuchin sindirar.
Sharsharak toshqin,
Yosh ko'ngil kabi.
Yo'lida shoshqin,
Yo'q hasrat-g'ami.
Uzoq belgisiz
Yo'lga talpinar.
Qaydadir dengiz?
Chopar, axtarar.
1927, 31 may
Sahroda
Sahro jimgina uxlar,
Ko'kda yulduzlar porlar,
Tevalar sekin-sekin
Ilgari qadam otar.
Tarqalar qo'ng'iroqdan
Bir tovush, umid to'la.
Aks etib ko'p uzoqdan,
Derki: "Naridan so'ra!.."
Ko'p yo'llar ortda qoldi,
Ketish, surilish yana,
Meni kim yo'lga soldi?
Intilish bor ko'ngilda.
Charchamaydi tevalar,
Azal, abad yo'lida.
So'ylar allanimalar,
Yulduzlar ko'k cho'lida...
1927, 4 iyun'
Bahorning Kelishi
Botdi quyosh - qiz,
Yondi uzoqda
Atlas etagi.
Ko'kda bir yulduz
Kuldi shu choqda...
Oqshom chechagi!
Yengil shamollar
Tentirab qoldi
Ko'cha-ko'ylarda.
Mayin ro'mollar
Kabi sudraldi

Oq bulut ko'kda.
Bahorning nozik,
Ipak nafasi
Yetishdi qonga.
Tarnovdan "tik-tik"
Tomchi pardasi
Uchdi har yonga...
Ko'zimda qotgan
Dard qanotlandi,
Yo'qlikka uchdi.
Qalbda uxlagan;
Nash'a uyg'ondi,
Ko'klamni quchdi.
1929, aprel'

* * *

Yana bahor keldi, yana qalb yonar,
Yana gul pallasi, yana ishq fasli,
Uzoqliklar sari ko'ngil tolpinar.
Yana ichda jo'shar hislarning masti...
Ufqqlar imlaydi, ko'k ham, bulut ham,
Gunafsha ko'zida yonar jonli his,
Daraxtlarga guldan toj qo'ygan ko'klam,
Ishqim yupatsa-chi... yo'q, mendan olis!
Ariqlarda lim-lim oqadi sho'x suv,
Yo'q, suv emas, oqar jonli, hur qo'shiq,
Bog'larni quchgan bir oltin uyqu
Har yonda go'zallik, har yon baxt to'liq.
1929, aprel'

Onlar

I

Quyosh og'di ufqdan,
Bir to'plam olov sochin
Ilib qoldi o'rmonlar...
Uzoqliklarda shu on
Sekin yozdi qanotin
Moviy, mayin tumanlar.
Yengil tabassum yog'ar,
Osmon zangori, so'ngsiz
Koinotga boqaman.
Ko'kda yulduzlar yonar,
Abadiyat go'zal qiz
Kabi yotar... tolaman...
1929, aprel'

II

Men yuraman asta-sekin,
Yo'llar qumli, ipak kabi...
Uyg'onmish tong va shamollar.
* * *

Uzun yo'lning o'ng va chap
Qator yuksak yashil archa
Uchlarida quyosh yonar.
* * *

Erkin qushlar va yaproqlar,
Kuylashadi uzoq-yaqin.
Bundan ko'zni ololmayman.
* * *

Shunda bitar g'am, firoqlar,
Mangu hayot musiqasin
Tinglab-tinglab qonolmayman...
1929, may, Yalta

Oqshom Sezgisi
Tog'larda ilindi quyosh etagi,
Og'ochlar uzoqda bir to'plam ko'lka.
Dengizda porlagan g'urub chechagi -
Suvlarning qo'ynida qizil mash'ala,
Uchib bir gala qush allaqaylarga,
Yo'qoldi ko'zimdan nuqtalar kabi.
Sukunat cho'zildi jar va soylarga,

Har yoqda kunduzning uchdi sho'x dami,
Faqat onda-sonda yuksalar sekin,
Qrim qizlarining tungi qo'shig'i.
Yonarkan yulduzlar ham birin-sirin
Oqadi ko'nglingga oltin tuyg'usi.
1929, may. Yalta
Qora Dengiz Bo'yilarida
Tinchibgina yotolmaysan yotog'ingda,
Dengiz, bukcha har on jo'shib chayqalasan?
So'yla, qachon urinishdan sen tolasan?
To'lqinlaring tosh kemirar qirg'og'ingda...
Sen zangori va ulug'san osmon kabi,
Bir asabiy g'azabing bor, yuzing titroq,
Tog'lar bag'rin savaydiansan sharoq-sharoq,
Bu isyoning abadiyat alamimi?
Seni sevdim, senga toldim, jo'shqin dengiz!
Senga boqsam unutaman go'zal yorni.
Qayna, ko'pir, kemiraber qoyalarni,
Jahannamiy chuqurlikda kuching cheksiz...
1929, may. Yalta
Yalta Kechasi

I
Kumush bulutlar quchog'ida oy
sho'ng'ib suzadi.
Burushiq tog'lar, dala, qir va soy
mudrab yotadi.
Og'ochliklarda yaproqlar kuyi
tunni allalar.
Yulduzlar to'kar ohista quyi
oltin xandalar...
Urinmay mag'rur yotog'ini tinch
quchgandir dengiz,
Qalbimda o'ynar so'ngsiz bir sevinch,
kezarkan yolg'iz...
1929, may.

II
Oy ko'kda beparvo tentirar yana,
Kumush tun cheksizlik quchoqlashganlar,
Tog'larda allakim yoqdi alanga,
Afsona devlarning ko'zidek yonar.
Ko'zimda belgisiz ko'lkaning izi,
Sevgim ham ko'ngilda tip-tinch uxlaydi,
Suyukli chechaklar, bog'chalar qizi
Ruhimga nega nash'a taqmaydi.
Xayol kemasida sira charchamay,
Kezaman jimgina men koikotni...
Sen meni masxara qilma, go'zal oy!
Shoirlar sevadi shunday hayotni.
1929
* * *

Ufqlar quroq tutdi.
Rang-barang bulutlardan.
Yuksak og'ochlar uchi
Quyosh sochlari bilan
Sekin o'ynaydi...
Sof uzoqlik,
So'ngsizlik
Ma'sum bola kabi tinch,
Abadiyat qo'ynida
Yotib mudraydi...
Jimgina tolaman...
Shu damda
Ko'ngil falsafasiga
Sajda qilaman.
Ko'ksimga sig'maydi -
Sevgi, sevinch...
1929
Toshchaqar

Vaqt peshin... yozning olov yaxtagi.
Har narsani qojiratib yondirar.
Ko'chalarning qizg'in otash, nafasi
Qizgan simdek badanlarga yopishar.
Og'ochlar ham qimir etmas, mudraydi,
Issiq-issiq! Faqat bunda bir toshchi
Bolg'a bilan toshlarni xo'p savaydi,
Zarbasidan titrab ketar yer osti...
Pisand qilmas issiqlikni "toshchaqar"
Shodlik sochar mehnat kuyi: "chaq, chaq, chuq".
Yuzlaridan, kiyimidan ter oqar,
Uning qora keng manglayi burushiq.
Hech narsaga nazar solmay shu uzun
Yoniq kunda baxt toshini chaqadi.
Erklik uchun, oltin kunlar tuzmak-chun
Zaruriyat kishanini uzadi.

1929

Yoz Kechasi

Oy nurlari mudraydi
Yaproqlarning betida...
Teran sukut shu tunda...
Ko'nglimga tutashgandir.
So'ngsiz, ulug' koinot,
Mangu yosh go'zal hayot.
Yulduzlarning uzoqda
Oltin kiprigi o'ynar,
Suyadi, zrkalaydi
Ona kabi meni-da...

1930

San'at Ishqi

Ko'p oylar qolsam sendan uzoqda,
Ey, san'at, otashing yoqar ko'ksimni;
Uyqusiz tunlarni kechirgan chog'da
Qonimga kirmishsan, ey bugak sevgi,
Porlaysan abadiy, oltin mash'ala,
Sendadir go'zallik, haqiqat, hayot,
Har jilva ochadi yangi manzara,
Sen bilan anglanur butun koinot.
Ey, san'at, bog'changda mangu qolayin,
Oltin naylaringni tinmay chalayin.

1930, 11 iyul', Moskva

Dengizga

Erkalan, sho'x dengiz, o'yna, sho'x dengiz!
Ufqlardan oshar, sig'mas qirg'og'ing.
Yigit ko'nglim kabi qayna tinimsiz,
Yuksaklarda quyosh b'oltin bayrog'ing.
Sohilingda bordir yashil, keng bog'lar,
Gullari uyg'onar cho'chib bo'sangdan.
Abadiy kuyingni tumanli tog'lar
Tinglaylar bir ulug' sukunat bilan.
Ey dengiz, erkalan, ajdardek to'lg'an!
Kuching zo'r, oshib o't yuksak tog'lardan.

1930, avgust

Dengizda Oqshom

Suvlarda sekin o'ynar,
Oltin qayiqchalardek,
Quyosh alangalari...
G'urub yong'ini qoplar,
Samo yuzi anordek,
Bulutlar atlas kabi...
Ufqlar qulochiga
Sig'magan buyuk dengiz
Chayqalar sekingina.
Suvlar quyosh sochiga
O'ralashib tinimsiz
O'par qirg'oqni asta...

1930, oktabr'. Sochi

Kunduz

Katta oq tuya kabi,
Bulutlar sekin cho'kar
Yashil tog', tepalarga...
Anhor kumush lentasi
Ufqlarga cho'zilar...
Na fusunkor manzara!
Nozli sarvlar sekin
Uzoqlarda raqs etar,
Havo tiniq, yengil, sof.
Uzun oltin bandagin
Og'ochliklarda surgar
Ko'klam qizi oftob...
1930, Sochi
Nish - Dutor - Chol
Qor kapalagi -
Poyonsiz gala...
Ko'kni quchishlar,
Erkin uchishlar
Bilan charchagan
Oppoq qanotlar
Sinadir yerda...
Shamol parragi
Tinmay aylanar,
Qorlarni xirmon
Kabi sovurar...
Hujra eski, tor...
Alanga tili
Kuyuq ko'lkani
Yamlar va yutar...
Cholning burushuq
Yuzini shu'la
Jimgina yalar.
Chol ko'zi yumuq,
Zavqlarga to'liq,
Chaladir dutor...
Muazzin tovshi
Ilashib yerga,
Bo'lib dabdala,
Kelar uzoqdan,
Cholning yo'q ishi,
Qor kapalagi
Qaltirab tinglar, yurakda to'lqin.
Dardini kuylar yosh oqin - shoir:
"Keldim seni so'roqlab,
Dilda yolg'iz ardoqlab,
Holim so'r, marhamat qil,
Bergan so'zingni oqlab...
Sendan ayrilgan kuni
Boshlandi umr tuni.
Sayramadi do'mbiram,
Kuylatarding sen uni!
Ko'zlarimga ovul tor,
Ko'klamimni bosdi qor.
Oshamadim, ichmadim,
Darding oziq bo'ldi, yor.
Keldi botir yo'ldoshlar,
Qo'lladi ko'makdoshlar,
Cho'lda izing qidirdik,
Nalar ko'rmadi boshlar?
Bir tun yetdik karvonga,
Har birimiz arslonga:
Aylanib qildik bosqin
Bong urdik biyobonga!
Taqdir ko'r ekan biroq,
Qutqarolmadim u choq.
Yana bir yil g'am yutdim,
Yigitlikda sochim oq.
Katta bozor "Qarqara",

Boylar bor gala-gala,
Qullikka rozi bo'lib,
Keldim bu bo'sag'aga.
Bu yerda baxtim guli,
Hammadan o'zi suluv:
Do'mbiram, yorni llaqta,
Sen azaldan bulbuli!"
Tinglar Baxtigul, har tomirida
Quyosh nuriday kuy oqar edi.
Yiqil, yoritosh!
Zulmat hovlida
Dev qo'rg'onlarga u boqar edi,
Yiqilsa to'siq, uchsa yor sari
Va quchog'iga o'zini otsa.
Shunchalar chekkan azob badali,
Erk, sevgi zavqin zungina tots!
Loaqal, qo'yib boricha tovshin,
Hozir kuylasa butun dardini,
Butun sog'inchu, butun yozmishin,
O, yor tinglasa yurak zarbini!
U - cho'ri, bunda mol qatorida,
(Hali boyning u nikohida ham!)
Chiqara bilmas tovshini sira.
Yig'lar tonggacha ko'z yummay bir dam...
Kundan-kun og'ir erksizlik zulm.
Sevar yuraklar yonar hijronda.
O, nasib bo'lsa qozushmoq bir zum!
Hamroh ularga umid har onda.
Malay bolalar ularning dardin,
Ko'ngil sirlarin tashir shivirlab.
Zindonga birdan ko'klamgi epkin,
Kirgandek dillar yashnar baxt tilab,
Ular ishqidan edi xabardor
Bu dargohdagi qarollar bari.
Bari ezilgan, barida dard bor,
Yelkalarida zahmat yag'iri...
Zulmga qarshi noiloj biroq.
Xonu bek, qozi, masjidu imom
Bari ham boyning so'zini der haq.
Fatvo, qamchi, pul boy bilan mudom,
Oqshomlar qattiq mehnatdan keyin,
Qo'shxonada jam bo'lur qarollar -
O'zbequ qozoq, qirg'iz...
Jim, horg'in
O'tirar do'stlar - yoshlar va chollar.
Sog'indiq olar qo'lga do'mbira.
Sevgi ertagi - g'amli va go'zal,
Oqar dillarga yoniq dard bila.
Ko'z yoshlar asta qaynar shu mahal...
So'ngra zulmni, boyni qarg'ashar,
Gulxanni qurshab o'ylashar g'amgin.
Oshuq-ma'shuqqa baxt tilaydilar.
Qish tuni oqar uzun va hazin...
Har bir qarolda chayqaldi g'azab,
Boy arg'imog'i harom qotgan kun
To'qqiz qarolni qorda qatorlab
Jazoladi boy (o'lgan ot uchun,
To'lagan to'qqiz ot bahosin boy!)
Badanlarda xo'b o'ynadi tayoq, . .
G'addor zolimning oqibati voy!
Qarollar o'chga otlandi inoq.
Tunda boy uyin qamraydi yong'in.
Boy, beka yotar hushsiz, zanjirband.,,
Otlar yoradi tun qorong'isin,
Cho'l sari uchar yigitlar xursand,
Boshda Sog'indiq bilan Baxtigul -
Ozod shunqorlar uchishar jasur.
Bu el hech mahal bo'lmayajak qul,

Shiori; qayda zolim bo'lsa ur!

1933

* * *

Yigit Majnun emas, qiz emas Laylo,
Ikkisi mehnatning erkin zarbdori.
Ikki sevgilini qoplamas aslo,
O'ksinish, ayriliq, ko'z yoshi - zori
Eshik tirqichidan mo'ralamaydi,
Devor teshigiga qoqilmaydi ko'z.
Sevgi ma'nosini anglatuzchi so'z
Ko'ngilda yax bo'lib mangu qotmaydi,
Mashina ustida qilindi izhor
Sevgi va sog'inish va butun ko'ngil,
Mehnatda chaqildi tuyg'u uchquni,
Na maktub, na al'bom va na bir bulbul..
Har oqshom tinglashib mahalladagi
Klubda radio... o'ynashar damka.
So'ng anhor bo'yida kezalar asta,
Dudoqlarni yoqar yoshlik bo'sasi...

1933

O'zbekiston

Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi,
Bir o'lkaki, qishlarida shivillar bahor,
Bir o'lkaki, sal ko'rmasa, quyosh sog'inar...
Bir o'lkaki, g'ayratidan asabi chaqnar.
Baxt toshini chaqib, bunda kuch guvillaydi.
Derdilarki: "uning ruhi injih va xasta",
Biroq, tomchi qoni uning bir kulcha oltin!
Uqa bilan tortib sotgan afsonalarin,
Achchiq, dudli falsafaning kutubxonasin
Sovet sharqi yoqdi... Yondi bu eski latta.
Sovet sharqi to'lqinini ko'ring - bu hayot!
Tebratadi o'lkani ish - baxtning o'z qo'li,
Ochilgandir tarixlarning eng ulug' yo'li.
Xazinasin ochib bergan qiri, tog', cho'li,
Butun sharqda yozajak u shafaqdan qanot.
Bolg'alar-la parchalandi uyqu iloni,
Mehnatkash el bukun belin ko'tardi mag'rur,
Termometr simobiday... O'par ekan nur
Yangi tarix quyoshidan uning manglayi,
Mehnatidan ayqiradi endi baxt, surur.
Dalalarda mashinaning tetik nafasi,
Ufqlarning zumrad ko'ksin o'par paxtazor.
Chollar - yigit, yigitchalar chaqmoqday yonar,
Erkin mehnat baxtli ko'zda cho'g' kabi porlar,
Irodaning qilich yanglig' o'tkirdir dami.
Qaytib kelmas va tirilmas moziy qabrdan,
Yo'qchilikdan kafan o'rtgan skelet kunlar,
Ko'z yoshi-la jinchirog'ni yondirgan tunlar..
Bo'shliklarga yuksalgan u xayol-tutunlar,
Yelkalarda uchqun yonmas qamchi zarbidan.
Xonaqani tashlab fikr fanlarni mindi,
Elektron tekshiradi kechagi cho'pon.
Institut kursisini o'par qiz-juvon.
"Kapital"ning har satridan galalab uchgan
Fikrlarni quvar tunlab yoshlar kiprigi.
Yaratipdi bir shoh asar, go'zal bir doston,
G'adir-budur mehnat qo'li bitgandir buni,
Kelajakning bahoridan olingan kuyi,
Xayollarga sig'maydi hech buning mazmuni,
Qofiyadir fabriklar-la qizlar qo'shig'i,
O'qi va sev! Buning ismi yosh O'zbekiston.

1934

* * *

Bulutlar sochingga ko'z yoshim kabi
Tomchilab o'tdilar binafshazorda,
Ko'z yoshim aralash yuragim g'ami
Yozilib ketgandi bir chog' bahorda.

Bulutlar qaldirab kechdi o't chaqib,
Cho'pon uyqusiga tomchilar tomidi.
Sochlaring yomg'irdan gavharlar taqib,
Kularding, boqishlar menga ilhomdi.
Har bahor surgaydi binafshazorga,
Gullarning ko'zidan, nozik hididan
Yodimga tushadi eski xotira.

Binafsha yarqirar ko'z tomchisidan...

1934

Ko'klam Hislari

Boshimda olmaning xushbo'y oq guli,
Ulug' yerni quchib yotibman uyg'oq.
Qulochim yetmasa qalbim yetkusi,
Insonning qalbiga quyosh jinchiroyq.
Daraxtlar ko'tarmish gul qadahchalar
Ko'klamning, hayotning sog'ligi uchun...
Yasansa, quzonsa qirlar, bog'chalar,
Nega mehnat, yerni maqtamay bugun?

Birlashgan mehnat-la texnika va fan,

Hayot oltinini shaxdam qaziydi.

Kolxozning har yog'i tutash bir gulshan

Bu yerda ish - mehnat bir qo'shiq kabi.

Ota-bobolarning xotiralarin

Bir sukut singari saqlaydi bu yer.

Faqat maftun etar shoir xayolin

Qo'ynidagi ko'klam, manglay to'kkan ter.

1934

* * *

Oy nurining mavjlari yoyilar mayin,
Jimjitgina ko'lkalar qochar panaga.
Ko'kda yulduz gullari ochilgan qalin:
Yozning yelpig'ichini tindirmas kecha.
Uyqusi yo'q barglarning chuchuk lapari,
Qalblarimizga tegar, hislarni yoqar.
Yonar ko'zlarimnnda yoshlik nash'asi,
Yaltirar boshimizda kumush olmalar...
Atlasday tozlanadi ranglar chamanda,
Oltin yomg'ir yuaadi gullar tojini.
Jaranglab tin havoda nozli bir xanda,
Qalbga bog'laydi tunning ipak sochini.

1934

Kuzda

Uchar, yerni o'par bir gala yaproq,

O'qib bitirishdi yoz dostonini.

Og'ochlar gavdasi oriq va titroq,

Sovuq yer o'chirdi yashil qonini.

To'satdan kuz bosdi, bulut va yomg'ir.

"Yalang oyoq" yozning ko'm-ko'k yaktagi

Jiqqa ho'l bo'ldi u, oftob sari

Tutib ko'kragiii isinar bazo'r.

Uchib yer tishlaydi bir gala yaproq

Sasida quyoshning, baqorning yodi.

Go'zaldir oltin kuz so'lg'in parvozi,

Bog'chalarda tanho kezaman uzoq...

1934, 20 sentabr'

* * *

Bir yutum may kabi

Seva simirdim

Gilosday labingni,

Do'ndiq, sevgilim!

Bir yutum may kabi

Seva simirdim,

U damda abadiy

Tuyuldi umrim.

Oy nurin yopingan

Chiroyli bahor...

Qani u sog'ingan

Gilos dudoqlar?...

1934, 21 dekabr'

* * *

Yozning olovi o'chdi, yallig'i qoldi,
Barmoqlarda sanashdi chol hisobdonlar,
Menga "asad norasad" dedi bog'bonlar.
Moviy tutunlar ila bog'lar o'raldi.
Chug'urchuqlar-da ketdi, qizlar bo'sh qoldi.
Daraxtlarga osilgan eski chelak gung.
Barglarda seziladi o'zga bir gurung,
Yoz tandiriga jim kuz oyoq soldi.

1935, 8 sentabr'

* * *

Maysada yotarkan, o'yladim seni,
Yosh edik, sho'x zdik u choqlarda biz.
Quyoshdek yashardi ichda sevgimiz,
Shodlikning, kulgining bormidi cheki?
Ko'zlar xayolchandi, bo'salar dumbul,
Hislarga majhuldi hijronning tuni.
Dillarni to'ldirgan baxt edi nuqul,
Maysada yotgandik bir bahor kuni...

1935

Tog' Sayri

Axtarib topganimda "O'n ikki buloq!"
Qalbidamda o'n ikki she'r birdan jo'sh urdi,
Hammasi shivirlaydi sizdek, sho'x, inoq...
Ko'ksimgz ham o'n ikki bahor yugurdi
Porloq va sha'n o'n ikki ko'zning ishqida,
Ko'zlarim xiyla zamon adashib qoldi.
Sevinch qaynar, jildirar sof kumushida
O'n ikki qiz izidan xayol yo'l soldi...
Nurlardan halqachalar oqar, jimirlar...
Toshlarda yeinar mayin tabassumlari,
Oltin ipga chizilar jonli injular,
Bo'sadan-da shirindir, ich, yutulmari!
O'n ikki piyolaning yaltiroq mavji,
To'kingan lablarimda qolar bir umr,
Ko'zlari seni o'pgan biron yo'lovchi,
Balki bir chog' sevgimni hikoya qilur!
Men Epokrinani ham unutdim hozir,
Afsona tomiridan oqa bersin u.
O'q ikki she'r qalbi bunda toshadir,
Ilhom qadahlarining chiroylisi shu.
Har tomchisida butun quyosh bekingan,
Gullar nafis boshlarini egmish ta'zimkor
Barglarini varaqlab shamol tinmasdan
Shivirlar chashmalarga... muhabbat izhor.
Cho'milgan yaproqlarning sassiz chapagi,
Qo'ynida qubba-qubba yong'oq yumalar.
Ko'kning firuzasidan sirpanib chopar
O'n ikki ko'z qa'ridan quvnoq nash'asi!

1936

* * *

Yor ko'zlarining ishqini, xumorini yod et!
Ko'k gulshani durlar kabi porlaydi bu oqshom,
Har tog'da-yu, qirda yotadi nozli xush orom,
Dunyodagi ko'zlar aro shahlosini yod et!
Ko'ksimni ezar hajrida qalbimdagi tuyg'u,
Tepamda quyur kuyini bulbul yana sho'x, sha'n.
Gullar qadahin kechki Shamol asta to'karkan,
Yodimga tushar sen kabi dilbar, go'zal orzu.
Yolg'iz kezaman sharqiragan suv yoqasidan,
Yodingni quchib o'ltiraman tosh kabi sokin.
Olam qochadi, sen kirasani, qalbga shu chog' tinch,
Shiringina ro'yo kabi oqshom qorasinda...
Yor ko'zlarining ishqini, xummorini yod et!
Ovozini, sho'x sozini ham nozini yod et!

1936, iyul'

* * *

Yuraman, toshadi sevinchim.
Bu sevinch qayerdan, bilmayman.
Kechaning og'ushi latif, jim...
Yulduzlar chamani gullagan.
Toshlar ham, qushlar ham uxlaydi
Shamollar uchganda yep-engil,
Oy nuri mavjlanib titraydi,
Barglarga kiradi shirin til.
Koinot sevgisi gul kabi
Qalbimda ochilar, qayol - hur.
To'ladir sevinchning qadahi,
Yulduzlar tomchilar oltin nur...
1936, iyul', Chimyon

* * *

Abadiyat va umr
Singari oqadi suv.
Oq sochlarini uyqu
Silamas bunda bir qur.
Uning mavjlari ura,
Cho'ng toshlar tilga kirar,
O'zidan nayi dilbar,
Erkalanib, ko'pirsa.
Tog'dan sho'x, shodlik surar
Allaqayg'a sovg'asi
Quyoshning oltin tosi
Kunduzi unda suzar...
Oltin uzuklar oqar,
Har kun harir ko'ksida.
Jim-jim jimirlash ila
Yangi kunlarga chopar.
Yashil yoqalarida
Kezaman kunduz, oqshom.
Hovuchim qadah va jom,
Ichaman qona-qona.
1936, iyul'

* * *

Tepaga chiqamen, soyga tushamen,
Yo garang toshlarga jim suyanamen,
Yo buloq boshida bir cho'pon kabi
Yastanib bir lahza o'yga tolamen.
Jo'shadi buloqning kumush yoshlari,
Ham mungli, ham shirin jildirashlari
Buralib, ko'katlar ichidan chopar,
Uzilgan marvarid yarqirashlari.
Kunduzning sho'xligi har yerda ulfat,
Har yerda gullarning salomi esar:
Bulutlar tepaga qo'nar bir muddat.
Shu'lalar, soyalar birga tentirar.
"Dunyoda yashamoq na go'zal!" - bir sas
Havo oltinida jaranglab uchar;
Uzoq bir o'tovda patefon tinmas,
Orzular siynaga sig'masdan toshar...
1936

* * *

Oltin sepkilli qop-qora kecha,
Qora iliqlik, xushbo'y bir nafas
Sekin esadi. Uxlar qir, tepa,
Ariqda oqar notinch, qora sas.
Gullar tojini silaydi uyqu,
Orzulari jo'sh urar ko'ngulning.
Og'ochliqlardan keldi bir "uxu".
Shamol shivirlar: kelmas, uzulmang!
Tugar hislarin qora baxmalcha.
Yulduzlar jim-jim kiprikdan tomar,
Tun xushbo'y, iliq: nozli bir palla,
Tog'lar boshida yulduzlar chaqnar...
1936

Na'matak

Nafis chayqaladi bir tup na'matak
Yuksakda, shamolning belanchagida,
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,
Viqor-la o'shshaygan qoya labida.
Nafis chayqaladi bir tup na'matak
Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil,
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun,
So'nmaydi yuzida yorqin tabassum.
Yanoqlarni tutib oltin bo'sa-chun,
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!
Poyida yig'laydi kumush qor yum-yum...
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...
Shamol injularni separ chashmadak
Boshida bir savat oq yulduz - chechak,
Nozik salomlari naqadar ma'sum!
Tog'lar havosining firuzasidan
Mayin tovlanadi butun niholi.
Vahshiy qoyalarning ajib ijodi:
Yuksakda raqs etar bir tup na'matak,
Quyoshga bir savat gul tutib xursand!
1936

* * *

Shamol, bir ertak o'qi
O'zganda tog' uyetidan.
Ichib bulok boshidan,
Shamol, bir zrtak o'qi!
Archalar shoxidan tush!
Ko'k ipakda qil jilva,
Sochlarimda g'ivirla,
Kel, qalbimga shivirla,
Archalar shoxidan tush!
Tog'lar ro'yosini ayt,
Yulduz salomini ayt,
Shivirla hayot sasin,
Sevgi duosini ayt.
1936, 9 iyul'

* * *

Bo'sh kunim bog'ma-bog' kezaman
Uyushkan rezavor bog'bonlar...
Devor yo'q, "po'sht-po'sht" yo'q... Sezaman
Ish bilan ovora juvonlar...
Qo'ltiqda Pasternak yo Pushkin,
Hislarda uchadi dilgiriklik...
Oyoqlar yozadi chigilin...
Yel, quyosh beradi xo'p tinchlik.
Bedaning ko'k rangi mavjlanar,
Olmalar quyilib gullagan...
Ekinzor... Mevazor va tokzor...
Shohiday tovlanar shu'ladan.
Har bog'cha bir to'plam gul kabi,
Havosi chayqalgan atirga.
Shiyponda yosh ona allasi,
Har nafas yangi bir manzara.
Yotaman cho'zilib maysada,
Boshimda eng mayin gul chodir.
Yer kurra siqqanday bag'rimga,
Fikrlar bir onda toshadir:
Ona-Yer naqadar mehribon?
Hammani qalbida uxlatar...
Bir qo'lla to'ydirib, yashnatar,
Bir qo'lla o'tkazar o'roqdan...
Minglarcha bobomdan bir sukut
Qolgandir bag'rida ehtimol.
Qop-qora ufqda bir bulut
Singari eriydi bemahal.
Ko'ksidan unadi bahorlar,
Sayr etar gul osib bo'yniga.
Sehrni bilmovchi sehrgar

Yanadan tortadi qo'yniga.
O'ylayman, kelarki bir zamon:
Suyishkan ikki yosh dalaga
Chiqishar shahardan, oynadan...
Gullardan esirgan havoga
Do'ndiq qiz - falsafa doktori,
Yosh yigit sayyora yo'lida,
Injener - texnika g'ururi:
Yulduzlar tizgini qo'lida...
Quvishar bir oltin qo'ng'izni,
Ikkisi quvonib boladay.
Kulishdan, sevinchdan xinaday
Qizillik silaydi oq yuzni.
O'tirar qo'sh mag'iz singari
Faylasuf, injener tepada...
She'rdan, futboldan va fanniy
Bahslardan talashib masala.
Dastlab terilgan ko'p gullar -
Qoqigul, chuchmo'ma, binafsha,
Kim bilan qancha ko'z, ko'ngillar
Mazmunin to'plamish shu dasta?..
Ehtimol men ham bor... meni ham
Hidlashar galma-gal ikki yosh.
Har bahor bilgisiz sag'onam
Gul bo'lib ochilsa va quyosh
Silasa yomonmi? O'ylayman:
Yuzimda titrama, tabassum...
Azaldan abadni bo'ylayman,
Girdobmish tug'ilish va o'lim...
Pushkin
Oltin misralarga naqshlangan fikr,
Qalbing quyoshidan quyulgan tuyg'u -
So'nmaydi, ey shoir, o'tsa yue asr,
Haykaling singari chidamli, tunj u.
Toshlarni chang qilib uchirar zamon,
Bir uchqun yo'qotmas she'ring yolqini.
Bog'chang bir bahorga hamisha makon,
Sevadi har ko'ngil, har xayol uni!
San'atning eng yuksak cho'qqi toshidan
Oqdi fikrlaring keng doiraga:
Oq shu'la mavj urgan tog'lar boshidan
Guvillab otilgan sof bir shalola...
Erkin manbalardan esdi ilhomning,
Hislar, kechinmalar toza va latif,
Sho'x nozlar, sevinchlar kuylagan sozing
Hayqirar, chaqirar, dam ingrar hafif...
Qayg'ung ham nash'angday, yulduzday porloq,
Qalbing otashiday issiq va yaqin,
Yozgi yomg'ir kabi ko'z yoshing qaynoq:
Yuvib, yashnatadi qalblar gulshanin.
Hayot, tabiatning cheksiz ohakgi,
Sanoqsiz rangi-la she'ryang yarqirar.
Hur, mag'rur boshingda shon guldastasi
Nuriga yulduzlar ko'kdan suqlanar.
Yuksak amallarni etding tarannum,
Qo'shig'ing hur ko'ngil, erkning ovozi!
Hayqirding, titradi qirli toj, zulm,
Itarding kishansiz hur Rusiyani!
U zarrin kiyimli razil va olchoq
Jallodlar qon tomgan qo'llari ila
Har bir odimingga qo'ydilar tuzoq,
Qalbingga sanchdilar ming zahar igna!
San'at otashidan ular begona
Ko'zlarin qoplagan fahshning dudi.
Saroy - yuz tovlangan bir quzg'unxona
Xalqning ko'z yoshlari - uning g'ururi!
Quvilding janubning sahrolariga,
Erkin qo'shiqlaring quyulib-toshdi,

Yangi go'zalliklar she'ring toriga
Nafis kuylar quydi, kuying tog' oshdi...
Ko'zingda yonarkan daho quyoshi,
Qalbingda kularkan oltin bir bahor,
Seni ezdi qora davrning toshi,
Sen ketding qoldirib mangu chamanzor
Nur to'la qadahing icharkan dillar,
Hislar g'unchalaydi va ochiladi!
Yorqin ilhomining-la qaynar nasllar,
Asrdan-asrga nur sochiladi.
O'qirkan, sevging-la yonadi ko'zlar,
Dillarni to'ldirar bahor nafasi,
Oltin manbalardan nurlangan so'zlar -
Quyma misralarning jonli nash'asi.
Arktikaning muzi va quyuq tuni,
Qorli sahro, dengiz, bo'z qir, yaylovda
Shaharlar to'lqini, tog'lar cho'qqisi,
Bog'chalar diyori, har yerda shu'la -
Sochadi quyoshing, Ey shoir, surur -
Ila seni o'qir bu erkin Vatan.
Sen qancha tillarda sayraysan mag'rur,
Sozing yuksalajak yana baland, sha'n!..

1936

She'r

Deydilarki she'r - yulduz kirpigi.
Bolchiq yo'lni yorit, deyoymas hech kim.
Hayot qorasida inju nur ipi.
Deydilarki she'r - faqat qush tili
Ma'nosin tuyadi hassos ko'ngillar,
Yoki u ko'r qalbning ko'z yosh tomchisi,
Goshlarga tomadi, yo taqar gullar.
Deydilarki she'r - o'z mantiqini
Yumshoq uyqu chog'i oladi tushdan,
Qon va sevinch bergan yerning hidini
Ilhomlar so'rmadi puch g'urur bilan...

1936

Prometey

Qalb emas bir dengizdi buyuk sevgi, nur
Mavjlanardi, toshardi - ruhingdek qaynoq,
Manglayingning toshida kuch, fikr, g'urur
Uyilgandi, davrlar silolmas hech choq.
Insonlikka muhabbat mash'alasini
Qudratli qo'llaring-la quyoshdan yuksak
Ko'tarding, tangrilarning yoqib kinini,
Erkin boshing bilmadi aslo egilmak!
Ilk boshlading samoga qarshi o'chakish,
Jahon tunida chaqding ilk daf'a chaqmoq.
Jasorat alangasi edi bu yonish,
Ko'k g'azabdan silkindi, qaqshadi olchoq.
Gavdangni o'rab oldi temir ilonlar,
Sen mixlanning tog'larning qoyalariga...
Bo'lolmadi qalbingga tangri hukmdor.
Ortdi yana g'azabing quyosh yoviga,
Jigaringni yulardi burgut tumshug'i,
Iztirobing timsolidir kurash, zafarga.
Irodangga tiz cho'kdi qisman ko'r kuchi,
Abadiyatga kirding o't rang sahar-la.
Ey pahlavon, isyonchi - erksevar botir!
Yer bosgan oyog'ingni tangri taxtiga
Mardlik bilan qo'ydingu sindirding axir.
Sirlarni ocha solding inson baxtiga.
G'ururing qullikning u og'ir kishanin
Va iskanjasin otib, kerdi qanotin.
Ezguvchi qora kuchning bo'lib dushmani,
Aql va irodaning surganding otin.
Ey buyuk qalb, isyonkor, kuchli nafasing
Davrlar orasidan o'tdi, yashadi.
Qaqshatdi haqsizlikning minglab tojini,

Tarix tomirlaridan oqqan ruh saning!
Yerdagi tangrilarning qora qanotin
Yondirib nahra ochding nurga, bahorga.
Biz azalgi tunlarning oltin sabohin
O'pdik kurashlardan so'ng, miriqib bahorga.
Zamon okeanining vahshiy mavjlari
Oyoqlaring ostida o'rmalar xira.
Asl, ulug' bir viqor ila biz sari
Kelasan, g'urillangan alangalar-la!
1936

Lenin
Suzik ko'zlar ihotasiga
Tarixlar bir sahifa kabi.
Bir quyoshning mahobatcha -
Dahosining qilday shu'lasi,
U ko'zlarning ta'rifi uchun
Barcha lug'at, fikrlar yupun!
Erk va mehnat, nur dushmaniga
Chayqalardi g'azabi tinmay.
Ishi, so'zi yovlar safida
Portlar edi xuddi bombaday.
Har qadamda u hadsiz sergak,
Lokin tuymas zarra qadar shak.
O'rtoqlarga unda tabassum
Quyosh kabi, gul bahor kabi.
Qalbdagi hislar toshdi beqo'nim,
Qalbdagi jahon ishq va g'ami.
To'lqiniga qoyalar ham mo'rt.
Qalb shunday keng, quyosh - bir gugurt!
Koinotdir boshning mazmuni,
Unda yonar, qaynardi har chog'
Fikrlarning hadsiz quyuni:
Sirlar toshi zarbidan pachoq!
Bu bosh - yangi tarixning boshi,
Tunni yoqqan uning ziyosi!
Lenin - bu nom jahonning shoni,
Tarixga kuch va yangi nafas
Ham hayotning ulug' quyoshi,
Dunyo tinmas, nuri ham tinmas.
Bu nom-ladir millionlab ko'ngil,
Bu nom-la bosh ko'tardi har qul.
Lenin nomi dengizlar oshdi,
Oshdi tog'lar, sahrolarni ham,
Hududlarni; ufqni bosdi -
Masofalar chekildi bir dam.
Inqilobiy bo'ron, qasirg'a
Bilan kirdi bu nom asrga.
Zavodlarning temir qo'rg'oni,
Och-yalang'och ishchi daholar.
Jahannamday ma'danlar koni,
Qishloqlarda million kulbalar -
Barchasiga bu nom muqaddas,-
Umid, imon va erkin nafas.
Turli xalqlar ko'ngli, xayoli
To'qidi she'r, ertak va qo'shiq.
Yarqiraydi Lenin siymosi -
Oltin sahar o'pgan bir ufq.
Qalbdan - she'r, tunj, ipak, marmarga
Kirdi yorqin, rang, shu'lalarga...
Ko'zlardagi nash'alarda - u,
Uning ruhi - Vatan bahori,
Hayot undan oldi ong, tuyg'u,
Tirildi cho'l va qor diyori.
U bir qo'shiq dunyo turganicha,
Yangrar har so'z - o'lmas bir g'uncha!
Lenin burdi yer jannatiga!
Ozod mehnat gulbog'i sari.
Million ko'zlar xayollarida.

Yondi dinning qora sarobi,
Ag'darildi mag'rur samolar,
Yakson bo'ldi barcha xudolar.
Lenin fikri inqilob, kurash
Otashida toblangan qat-qat.
Uning kuchi beradi chidash
Olamshumul ishlarga behad,
Lenin bo'ldi mazlumlar yori,
Butun bitdi ularning zori.
Ko'r kuchlarning o'yinlariga
Qancha botir tosh kabi cho'kdi.
Zamonlarning quyunlarida
Lenin ishi eng baland cho'qqi.
Bunda kular quyoshli jahon,
Yiqa olmas hech kuch, hech bo'ron.
Ommalarning to'lqinini u
Yuksaltirib Himolay kabi,
Yuraklarga yoqib o't-tuyg'u,
Olib bordi kurashlar sari!
Omma edi o'ng va so'l qo'li,
Qoyalarning u edi zo'ri.
Hodisaning teran tomiri
Yaqqol edi Lenin fikriga.
Har masala uchi, oxiri
Birlashardi uning zehnda,
Har chigilni qilardi "alif",
Unda o'ylar edi bir sinf.

1937

Mashrab

Sochlari patila, ko'zlari xumor,
Ko'zlarda sachraydi qora, kuchli nur.
Saraton quyoshi, qish izg'irini
Ishlamish yuzlarning ma'no, sirini...
Davlati - qalb she'ri va eski tanbur.
Kulohdan toshardi jingalak sochi,
Mag'rur va ko'rkamdi har qachon boshi.
Tashir ham qish, qam yoz bir qo'sqi po'stin,..
(Unda qolmagandir yamoqsiz o'rin),
Belida kattakon bir nosqovog'i,..
Sahrolarni oshar bir shamol kabi,
Kecha ham kunduzday tutmas pardani,
Oyoqlari uchun tikanlar maysa,
Qumlar og'irligi unga bir paysa.
Ilhomi va sozi yolg'iz hamdami.
Bir hovuch suv yutib toza chashmadan,
Yastanar toshlarga, yozilar badan.
Osmonni bir tomchi moviy yosh kabi
Eritar, ko'zlarning jonli otashi,
Taqir toshlarda u ko'rardi chaman.
Oyog'i bosmasdan shahar qopqasin,
Xabari to'lqindek tarqardi, lokin
Mahalla, choyxona, takya va guzar
Minutni soat deb yo'lga ko'z tutar,
Ko'rmagan chizardi shoir siymosin.
Ana, shoir kelar.., Bir to'da bola
Uning orqasida ajralmas soya.
Ko'zlar aks etadi muhabbat, maroq,
Uni bilish qiyin: go'yo "jufi toq".
Asrlar ko'rmagan ajib devona.
Oltin tanga tutar qandaydir bir zot,
Piching ila kulib, otar shoir bot,
Tanga allaqayda jaranglar toshda,
Bunday shiralarga qo'nadi pashsha!
Usiz sehlidir, rangindir hayot...
To'xtab u: "Gulxan sol!" deydi birovga,
O'zi ko'p epchildir o'tin qalovga.
Olovni ham dudni sevadi shoir,
Kaftida cho'g'larni o'ynatar mohir,

Quyosh jilvasini ko'rar olovda.
Mana chekadi u to'liq zavq bilan,
Kattakon chilimning tosh to'ppisidan
Bir qarich o't uchar, tutunlar bulut
Qo'llari yoqada, ba'zi der: "Chulchut!"
Bahs etar ba'zilar shoir siridan.
Chilim tugar, so'zdan - sozga kelar gal,
U qattiq chertarak o'tsiydi g'azal.
Jaranglar havoda baland, xush ovoz,
Hammasi tabiiy, unda yo'q pardo,
Ruhlariing qa'rida yoqadi mash'al.
Tuya minib kelgan sahroyi qozoq,
Kosib ham, bo'zchi ham, dehqon ham shu choq
Uni tinglaydilar sukut ichida.
Boshlar raqs etadi kuy ta'sirida,
So'zlarning sehridan kim bo'lar uzoq!
Beqaror devona bilmaydi qo'nim,
Kimxobdan a'lodir unga jo'n to'qim.
So'zi xalqni qattiq kuldiradi goh,
Goho u qalblardan uzdiradi oh,
Darbadar kezadi, har go'sha ma'lum.
Mantiqi tig'idan kesilar chigil,
Mudarris, mullalar - qoshida razil,
Mag'rur boshi bilmas aslo egilish,
Undan sodir bo'lgan har qiliq, har ish
Topadi eng chuqur, eng nodir dalil.
Qalbaki e'tiqod, qalbaki axloq -
Asrlar chirigan, sasigan botqoq
Hech qachon bo'g'madi uning nafasini...
Oppoq dastorlarga to'kib tuvagin,
Isbot qila olar: naq undadir haq.
Qochadi har yerda koshonalardan,
Shoh do'stlar chirkinroq begonalardan.
Is bosgan kulbada topar rang, ziyo,
Xon qiz bo'lolmas ishqiga Laylo,
Qidirar quyoshni mayxonalardan...
Bulutday kezsa xalq ichidan shoir,
Xotirasi quyosh kabi qoladir.
Ko'ngli ko'targuncha har dargoh gulshan,
Bilinmas nash'asi, g'ami nimadan,
Hayoti ming quroq bir afsonadir.

1937

* * *

Mayli, suv ich, qattiq non kemir,
Lekin, yonsin qalbingda olov.
Falsafaning achchig'in simir,
Farog'at, tin senga bo'lsin yov.
Toshga ham, rangga ham, so'zga ham
Hayot nuri bilan ber jilo.
Nash'a emas, hatto senda g'am
Qalbg'a solsin hayotdan ziyo.

1937

Hayot Qo'shig'i

Quyosh, nuring to'ka ber mo'l-mo'l!
Bahor, ketma bizning boshlardan.
Yurtimizda qolmasin dasht-cho'l,
Chaman kulsin hatto toshlardan!
Yarqiray ber, quyosh - inqilob!
Boshla yangi zafarlarga yo'l.
Jahonlarga qilamiz xitob:
Abadiy baxt berdi bizga qo'l!
Sevinch toshgan, sadoimiz baland,
Ko'krak to'la hayot ishqiga.
Umid, orzu - bahorgi chaman.
Kechmakdamiz nur dengiziga.
Tarixlarning tun og'ushini -
Yorib quyosh tug'di insonga.
Insonlarning qadim tushini

U ko'rsatdi ro'y-rost jahonga!
Mehnat ozod za qalblar ozod,
Baxt, g'ururdan ko'kraklar baland.
Ijod nash'a kundan-kun ziyod,
Yo'qdir orzu bulog'iga band!
Hayotning kar, xasis toshiga
Yugurdi bir so'lim, yosh bahor,
Muz eridi suvning boshida,
Hayot ko'rди nur toshqin diyor.
Ko'zlardadir yoshlik uchquni,
Xo'p rostlagan qaddini inson.
Muhtojlikning zolim quyuni
Qilmas endi uni sargardon.
Ijodga boy, to'lg'in bir hayot
Bizda ochgan chaman yozini.
Fikr, xayol yoyib keng qanot
Yuksaltirar o'z parvozini.
Uchuvchi bo'l, vrach, rassom bo'l
Bizda san'at, hikmat b'hammasi!
Qanday orzu sari cho'zsang qo'l,
Muyassardir guli, mevasi!
Erk va inson singari yashash
Bizda bo'lmish qonun mazmuni.
Jahonlarga eltamiz quyosh,
Yashnar baxtning yarqiroq kuni...
Kishilikning minglarcha yildan
Beri to'qib kelgan armoni -
Tirildi ming go'zal rang bilan.
Bekor ketmas botirlar qoni.
Jasoratga solinmas soya,
Fikr yorqin va qo'llar pishiq,
Naslimizga qo'rquv begona!
Vatan ishq, burch hissi tiniq.
Kremlni quchib, o'ynoqlar
Volganing sho'x, toza to'lqini.
Hayot va baxt uchun qirg'oqlar
Mehnatimiz ochar har kuni.
Vatanda ko'k firuzasini
Teshgan eng boy, yuksak tog'lar bor,
Miriqib emar kun shu'lasini,
Uzum, anor to'kkan bog'lar bor.
Oltin boshqoq qir-dalalari,
Qancha o'rmon, daryo va dengiz.
Yashil gilam keng paxtazori,
Rango-rang, boy, mamlakat cheksiz...
Yashar, qaynar qishloq, shaharlar
Yasharadi mamlakat yuzi,
Har insonning ko'nglida kezar,
Baxt tashuvchi go'zal yulduzi.
Ishlaganga baxt, gul - quchoqda.
Hayotda rang va ziyo quyuq.
Mamlakatning qizlari bog'da
Kuylashadi yayrab bir qo'shiq:
"Yo'ldoshimiz oy, o'tob,
Baxt ochilmish chaman-chaman.
Quchoq-quchoq gul va kitob
Bag'ishladi go'zal Vatan...
Shodliklarning yosh bahori,
Sovuramiz guldan xirmon,
Sho'x jaranglar yoshlik tori,
Bermaymiz hech yozga omon!
Ulug' Lenin avlodimiz,
U berdi baxt, ish va huquq...
Unga kuylar to'qir har qiz,
Kuyga to'lsin so'ngsiz ufq!"
Fikr, istak, g'ayrat nogihon
Oqa ketdi toshib qirg'oqdan,
Ko'tarildi go'yoki to'g'on,

To'lib chopar daryo yiroqdan.
Qutulgan xalq ishlar, yaratar,
Xalq erkining go'zal, mo'l yozi.
Yer, suv, qonun, davlat unga yor,
Har ulug' ish uning parvozi.
Zavod, fabrika yuksalgan mag'rur,
Yangi fikr, yangi baxt, shuhrat
Barq uradi! Na go'zal surur...
Fikrlarda toshadi g'ayrat!
Bir kaft zo'rda oltin tog', ziynat...
Xalq suyagin g'ajigan ochlik,
Endi changal sololmas ofat,
Go'rga kirgan ochlik, muhtojlik!
Yurt baxt berdi hatto ko'r, karga,
Har bir qarich yeri, har toshi
Arzir chuqur sevgi, laparga,
Jahonda yo'q uning odoshi!
Muqaddasdir Vatan havosi,
Unda yangrar sho'x, erkin qo'shiq.
Tugatildi qullik balosi.
Turmushimiz boy, to'kis, to'liq.
Zavodlarda yigitlar - ilg'or.
Po'lat quyib, hayot qo'radi.
Fabrikada qizlar - ijodkor,
Ozod mehnat zavqin suradi.
Qo'yniga baxt, erk quchgan kunlar
Kitobida hech yo'q qaytariq.
Yangi his-la tug'ar saharlar,
Ko'zlarda nur: maqsad, yo'l aniq.
Chegaralar olov va temir.
Nayzalarning uchida yonar
Tiyrak ko'zlar, yov yuragi zir,
Chegarani arslonlar poylar.
Butun jahon tongi uchun biz
Eltmoqdamiz buyuk quyoshni,
Har yovuz kuch cho'kar albat tiz,
Qarshimizda egajak boshni!
Vatan to'ldi baxtga, zafarga -
Har bir qarich yeri, har toshi -
Arzir chuqur sevgi, laparga,
Jahonda yo'q uning tengdoshi.
Yarqirayver, quyosh - inqilob!
Boshla yangi bahorlarga yo'l.
Dunyolarga qilamiz xitob:
Abadiy baxt berdi bizga qo'!!

1937

Qoraxat

Bexosdan uzilgan shoda dur kabi,
To'kildi umidning rangli barglari.
Osildi bir onda qo'llar madorsiz,
Yer qochdi, qoraydi quyosh zarlari...

1941

Yor

Ko'ksimdagi sevinch shuncha zo'r,
Dumalaymen maysada tanho.
Goh tentirab ketamen uzoq,
Yerni quchib o'pamen goho...
Qir, tepalar adirlar chaman,
Ko'klam yoygan har yerda gilam.
Oltinlangan xushyoqar havo,
Sho'x, mast shamol tinmaydi birdam.
Turnalarning qop-qora ipi
Jilpoqlanib ko'kda so'nar jim.
Ot kishnashi husn dalaga,
Guvillaydi soyda suv lim-lim...
Tanho kezib, miriqib dumalab,
Sog'inch bilan yerni o'paman,
Deyman: ko'p soz mehrlri ona,

Quchog'ingga bir kun qaytaman...

Shimoliy Toshkent kanali,
1942, aprel'

* * *

Yor ketdi, ko'zim bulog'i qoldi.
Siynamda tirik firog'i qoldi.
Ishq xotirasi kabi sochimning
Yoshlikda ko'paygan oqi qoldi...
Har lahza dilu xayol parishon.
Bir xo'rsinishimda dardlar ummon.
Yulduz kabi tunda yarqirar jon.
Tundek sochi ishtiyoqi qoldi...

1942, 26 iyun'

* * *

Sendadir ko'zlarim, sendadir ko'ngil,
Uzoqlarga hasrat bilan boqaman.
Na quyosh, na bahar, na gulshanda gul
Yurakni yupatmas - men sog'inaman.
Seni sog'inaman, ruhda yo'q qaror,
Oshib kel tog', dovon!
Bu qadar hijron!..
Dardim bor, gulim bor, qo'shiqlarim bor..
Sen yo'qsan! Nahotki bu mangu armon?!

1942, 12 iyul'

* * *

Tun. Shamollar kezar betinim
Goh ishkonda, goh derazada.
Cho'miladi bir to'p yulduz jim
Jildiragan bir ariqchadan...
Suqtoy kuchuk izg'iydi tanho,
Suyak tishlab sakrar paxsadan.
Nurlanadi bir chetda samo:
Oy - o'rtada singan zar lagan.
O'tiradi shoir ayvonda,
Xayollari tushlarda sarson.
Qayg'uradi o'tgan har onga,
Oqar daryo - oqadi zamon.

1942

Sozim

Uyg'ongach umrning ilk bahori,
Soz bo'ldi ko'nglim samimiy yori
Hamshira kabi yaqin va dilbar,
Tong yulduzidek umidga undar.
Soz bilmadi hech mahal arazni,
Nurlatdi yurakni jonli bazmi.
Ul qo'rqmadi duch kelsa tikanzor,
Ofatli bo'ron, qutursa sel, qor...
Gar egsa qaddimni cho'ng mashaqqat,
Bir onda uchirdi - misli ul pat.
Qishlarni bahor aylagan ul,
Undirdi bog'imda xilma-xil gul.
Gullarning tusi bag'ir qonimdan,
Mast nozi sevgining tongidan.
Men u bilan ayladim tarannum,
Har so'zda quyosh qilur tabassum.
Dillarda chaman ochar bu so'zlar,
Sof his bilan yashnamasmi ko'zlar?
Nur, haqqa chaqirdi xalqni sozim,
Xalqimnikidir so'zim - ovozim!

1942

* * *

Olmalar taram-taram,
Bog'larning husni to'lgan,
Chaman rangga boy, ko'rkam:
Ko'ngillarga ne bo'lgan?
Ko'zlar jilvasi o'zga,
Qo'shiqlarning sho'xi oz,
Bir "uh" kirar har so'zpa,

Horg'in, g'alati bu yoz.
Ufqlarning beti qon...
Har yurakda bir hijron...
1942, 26 iyun'
* * *

Hayot qa'ri larzada...
Asabiy, tund shamollar.
Betoqatdir xayollar,
Tonggi so'z - kech safsata...
Bulutlarning alvoni -
Bo'ronlarga bayroqdir.
Kurash - kurashmoq haqdir!
Jo'shar hayot girdobi...
Kurash, haqlik bizniki,
Mangu zafar bizniki!
1942, 14 iyul'
* * *

Quyoshning mayin zar mo'ynasin
Yopinib kuz iliq uyquda.
Suv tashlab loyqa, sho'x sur'atin
Ipakday tovlanar ko'zguda.
Kezaman jimgina bog'chada,
Boshimga to'kilur yaproqlar.
Yozgi rang mavjlari o'chsa-da,
Gulzorni ko'zlarim quchoqlar
1942, 10 oktabr'
* * *

Qorli yo'llar, uh, uzun
Bu yillarning dardidek
Uvillaydi oq quyun,
Achchig'i bilmaydi chek!
Bu yo'llardan yurdi yov,
Zilziladek o'tdi u.
Hayot kuyundi - kosov,
Qon sizuvchi yo'llar bu.
Chekildi yov poytaxtdan
Boshsiz, qo'lsiz, oyoqsiz...
Qafani qordan, yaxdan...
Qish, nayza xo'b inoqsiz!
1943, fevral'.

Ko'rkam Tol
Tolga u qarab qoldi,
Yuragiga to'ldi g'am,
Xira-tiniq oydinda
Ko'zlaryni hech uzmas.
Xotira hushni oldi.
Barglari qugoq, ko'rkam
Tol dardi bor dilida,
Buni aslo unutmadi u,
Quyuk tol novdalari
Ostida tong paytida
Xayrlashgan bir damni.
Yov jahaynam qurdi-ku.
Go'zalim, o'ch olovi
Bormi dil nafratida,
Partizan qiz bo'lgali?
Ayrildilar dalada,
U mindi otga shu on.
Yelg'iz oyoq yo'llarda
Qiz ketdi o'rmon tomon.
Halqumga dard tiqilar!
Ko'pincha tunda birdan
Xotiralar duv bosib,
Manglayin ezar, siqar.
* * *

Sochlarining changiga boqma,
Ko'ylagining rangiga boqma,

Qizcha mingan yag'ir eshakning
Quloq yirtar "hangi"ga boqma.
Ko'zlarining sof nuriga boq,
Sevgining mast daryosida oq!
1943, sentabr'
Mayli...
Nima desa desin odamlar!
It huradib "o'tadi karvon.
Vijdon bilan qimmatdir damlar!
Har vaqt eshdir qalbimga vijdon!
1944
* * *

Yig'i kelmaydi sira...
G'azabdan qaqragan ko'z.
Bu yo'llarning yaxidek
Labimda qotipti so'z.
Qoshlar, kipriklar qirov -
Yuraman hushsiz, hayron.
Qornim och, esga kelmas
Xaltamdagi g'ishtdek non...
Kuygan uylarda uvlar
Qish quyuni betinim.
Tanho kezaman. Yig'lar
Yuragimda Vatanim.
1944, 17 fevral'
Navoiy
Asrlarga eltib xayolni
Ba'zan yorqin ko'raman cholni...
Nuroni yuz, nuroni soqol,
Ko'zlarida muhabbat, malol.
Daho porlar peshonasidan,
Go'yo quyosh bulut ichidan.
Buyuk ko'ngil va buyuk fikr
Mavjud kabi, chizg'ilarda sir,
Ko'rkam, mag'rur, oz egik boshi,
Quyug' jiddiy kiprigi, qoshi,
Nigohining ma'nosi nodir:
Shunday boqar faylasuf shoir.
Chehrasida hayot mazmuni,
Tajribalar yasamish uni.
Donishmand chol, ulug' ruhga xos
Bir tabassum - tavsifga sig'mas
Tavoze samimiy, iliq,
Harakati nozik va silliq.
Nafis butun siymosi, sasi.
Nafis ishq, g'ami nash'asi...
Yarim kecha, o'tiradi u.
Bir xitoyi kosada lim suv.
Yonar titrab bir oltin shamdon
Tokchalarga kitob qalangan.
Gilamlarning qon gullarini
Yondiradi bu shamning nuri.
Jihozlarda tartib va ma'no,
Ingichka zavq, ohangga imo...
Qari shoir fikri toshadi.
U enkaygan, tinmay yozadi.
"Qirt-qirt" etib savag'ich qalam
Sukunatni buzadi har dam.
Nafis qog'oz betlarini she'r
To'ldiradi, toza har satr.
Yuksak edi xayol parvozi,
Yashnar so'zning chamani - yozi.
Fikri - uchi cheksiz samoga
Kirgan tog'dan enmish shalola.
Og'sa hamki umrin quyoshi,
Yoshlik o'ti uning yo'ldoshi.
Soch-soqolni qirov bossa ham
Ijod hali chiroyli ko'klam.

"Xamsa"dagi oftob albat
Buyuk qalbdan bir yolqin faqat:
Mehnat uchun tug'ilgan odam,
Ishga qancha sevgi va chidam.
Bu odamda qancha matonat!
Ish, yaratish - unga farog'at!
Uxlar edi go'zal "Unsiya",
She'r parisi cho'chmasin deya...
Posbonlar, mirshablari sasi
Ba'zan yangrar edi kechasi...
Uzoqlarda qichqirar xo'roz.
U ishlaydi, qalam qilmas noz...
Quchgan edi shirin bir ilhom,
Yozgan sari ruhida orom...
Shoir kezar "Binafsha bog'"ni,
Chamanzorlar ochar dimog'ni.
Xiyobonlar shunday go'zalki,
Soyada nur jimirlar sekin.
Bir qo'zg'alib madorsiz shamol
Yaproqlarni yelpidi xushhol.
Shoir ko'zi har bir go'shada
Topar yangi go'zallik, lavha...
Qushlar sayrab barglar ichidan,
Eslatardi "Lisonuttayr"dan.
Har bir guli bu chamanzorning
Jon bag'ishlar tiliga torning
Ilhomidan o'zga yo'q bir yor,
Usiz shoir ko'ngli beqaror.
Ilhom unga yangi bir g'azal
G'unchasini ochar shu mahal.
Go'zal ko'shkka qayrilgan zamon,
Mevazordan chiqadi bog'bon.
Ko'zlarida sevgi, ehtirom,
Boshin egib, beradi salom,
Bir mis toboq haqiqday olma:
"Taqsir, totib ko'ring bir marta.
Ilk uzishim, bu yil meva mo'l".
Shoir kulib, uzatadi qo'l,
Olar ikki yoqut olmani,
Ko'zni olar rangi, jilosi...
Hidlaydi zavq bilan so'ngra u.
Yasharadi qalbida tuyg'u:
- "Bolalarga ulashing har kun.
O'zga quvonch yo'q ular uchun".
Shoir ko'shkka chiqarkan, uni
Qo'ltiqalaydi ta'zimkor quli.
Ko'shkki, shunday havoyi, yuksak,
Yelpar jonli novda va chechak.
Gilamlarning jonli lolasin
Yengil bosib, ipak jomasin
Yechib, sekin o'tiradi u,
Bir juft qumri qafasda: hu-hu!
Yashil bog'lar va ekinzorlar,
To'lqinlanib ko'zni quvnatar.
Ana, qarshi tepada cho'pon,
Sodda nayi chalar nogahon...
Pastda dehqon chopadi yerni,
Og'ir mehnat ezgan u erni:
Yalangoyoq va egni churuk,
Manglayida dard, qaddi bukuk.
Shoir fikrin o'raydi bulut,
Go'yo dardin so'ylar butun yurt.
Farovonlik berib olamga,
Dehqon o'zi botarmish g'amga.
Qani qonun, qani adolat?
Xalqni talab, zolimda rohat...
Ulusni kim etar baxtiyor?
Mast, beparvo taxtda hukmdor!

Ana Hirot ilinar ko'zga.
Yotar changdan yupqa bir bo'zda.
Masjid, jome va madrasalar,
Hilollari ko'kda yaltirar.
Shoh, shahzoda, bek saroylari,
Zangin ko'shki, ravoqi, arki
Yarqiraydi cho'mib quyoshda.
Bu - ziynatli "oq suyak" Hirot,
May, musiqa qaynagan hayot;
Kiyim zarrin, idishlar zarrin,
Musiqi raqs quvar g'am gardin.
Aysh-ishrat va kayfi safo
Girdobiga botgan bir dunyo.
Har birida hisobsiz ko'p mol,
Tavsifidan har qanday til lol.
Har qadamni o'par qul ko'zi,
Bitar labdan uchgan har so'zi.
Har birida bir dasta xotin...
Go'zal qizlar yosh latofatin
Qo'pol hirsalar panjasi ezar...
Ko'zlarda bir siyoh dard kezar.
Qul kanizlar boshida kimlar? -
"Xonim oyim", "sulmon begim"lar.
Ana unda yerga yastanib,
Katta Hirot yotar chang yopib:
Choldevorlar, kulbalar mush-mush,
Hazar qilar qo'nishga boyqush.
Ulus yashar qishu yoz muhtoj.
Kuchi, qoni xazinaga boj...
Har nav qashshoq, kosib, hunarmand,
Mashaqqat-la ruhlari payvand...
Kampirlarning charxi singari
Ezgich, rangsiz hayot ohangi.
Bu Hirotning sirini bilgan
Shoir qalbi yonar ichidan.
Och va xarob mashhur Xuroson,
Unda qattiq zulm hukmron.
Zulm solmish hayotga kir, zang,
Adl yuvib bersa oltin rang...
She'r va fan bilan "yarqiroq" -
Tojdan buni kutdi u ko'p choq.
Lekin shohning butun xayoli
Ishrat, safo va ulus moli
Bilan to'lsa yutoq xazina!
Davlat uning ko'lkasigina...
Qora tunni desa yorug' kun,
Kim egmaydi "balli!" deb bo'yin.
Do'st shoirning muloyim sasi
Yoqmadimi shoh g'azabini?
Surdi uni shohning quvg'ini,
Boshdan kechdi g'urbat quyuni...
Saroy to'lgan edi o'ch, kinga,
Chaqmasdan u kirmadi qinga.
Zahar bilan shoir izini -
She'r - san'at nur qandilini -
So'ndirmoqchi bo'lmadimi shoh?
Bundan ortiq bo'lurmi gunoh?
Yaltiragan, mast, chirkin guruh
U dahoga soldi g'am-anduh.
Lekin, yana nafrati qaynoq,
Ishonch hali quyoshdan porloq.
Tafakkurni uzdi shu dami
Yosh mulozim chiroyli sasi:
- "Ruxsat tilar ikki musofir".
- "Men mamnunman, kirsin!" der shoir
Ikki yigit - qozonday salla,
Eski to'nlar olacha - malla.
Yuzlariga mushkul safar iz

Solgan: ular oriqlar va rangsiz.
Ular qo'yib qo'lni ko'ksiga
Turishardi chol huzurida.
Shoir ko'zi so'raydi savol,
Biri bayon etar hol-ahvol.
- "Siz mehribon, panohingizga
Sig'inamiz, ming qulluq sizga.
Biz faqirlar tolibi ilm,
Samarqanddan chiqdik, biz yetim,
Goh eshakda, goho piyoda...
G'ayrat berdi sizning ostona".
«Т»"G'ayratingiz uchun ofarin!"
Madrasa, joy, nafaqa tayin.
Ularga yo'l boshlar mulozim.
So'ng yig'ilar nuqtadonlar jim.
Fan, san'atning gullari butun
To'plangandi suhbat uchun:
Bir ko'p shoir, bir qancha olim,
(Muarrif ham tabib, munajjim)
Necha mashhur musiqiyshunos,
Uch-to'rt hofiz, kibarlar xos.
Aflotun ham Arastu fikri,
Necha olim, qahramon zikri,
Falsafadan "ilmi romga"cha,
Mavzu bo'lar muhohasaga.
Go'zal bir bayt, yoki ruboiy
Qancha cho'zar munohishani?
Bahsni kesar ora-sirada
Har xil hazil va mutoyiba,
Zo'r qahqaha uchadi bir zum,
Ustod yuzi to'la tabassum.
Ko'p mayl etar latifa sari,
(Koshki bo'lsa Mulla Binoiy!)
So'ng mashshoqlar, hofizlar gal,
O'qiladi fors, turkiy g'azal.
Majlis zavqi yetadi avjga.
Kuyalar chalar shoir - bastakor
Fikri topar sehirli diyor...
Shoir otda borar shoh sari,
Hirot yashar har kungi kabi.
Halvofurush maqtar halvosin,
Kampir eltar olgan g'o'zasin.
Bir eshakka cho'p-xasni ortib,
O'tinchi ham boradi horib.
Bir o'g'riki qilib sazzoyi,
Sudrashadi necha sipohi
Yuraklarni zir-zir qaqshatib,
Arg'imoqda uchar bir noyib:
Bir zo'ravon, oriqlar amaldor
Tiga kirdi: qayg'usi bozor...
Necha rangpar mullabachchalar
Bir juvon-la imlashadilar...
Rastalarda zo'r g'ovur-g'uvur,
Bazzoz boylar o'tirar mag'rur.
Tog'-tog' shohi ichida bir chol -
Mashhur xasis, yegani uvol...
Shoir kezar asta, ulug'vor.
She'ri, ishi bilan u dongdor.
Yosh-qarining salomi hadsiz,
Javobsiz u qoldirmas hargiz.
Shoir saroy qulluqchilari -
Bilan hozir kirar ichkari.
"Bog'i jahonoro" muzayyan,
Nafis ko'shklar, gullar va chaman,
Kirib shohning qoshiga shoir,
Ta'zim, qulluq ado qiladir,
Tez qarigan bu ojiz sulton,
O'tirardi bir falajsimon.

Ifrot ayshning chirkini soyasi
Siymosining chin ifodasi...
Atrofida ko'p go'zal juvon,
Ziynatida yo'q biron nuqson -
Tartib, odob bilan tik turar,
Bazmda may serob, jo'sh urar.
Bunda beklar, bir ko'p mansabdor,
Shohga yaqin a'yonu, do'st-yor.
Yarqiraydi kiyimlar oltin.
Asl toshlar bir-birdan yorqin.
Vazir ham bek yuzlari bir zum
Chizdi ajib qiyshiq tabassum.
Shohning shirin so'zin hiylakor -
Mast ko'zlari etardi inkor.
Shohona bazm, kecha xush, xandon,
(Bazmsiz kun bilganmi Sul-ton?)
Har kungiday bu majlis chanqoq,
Qadahlari yoqutday porloq.
Soqiylar ham quyar betinim,
Zar kosalar uchadi lim lim.
Tortiladi xilma-xil taom,
Oltin-kumush - idishlar tamom,
Barcha ko'zda sharob jilvasi -
Ba'zilarning tushdi sallasi.
Musiqi ham keldi faryodga,
Mastlar boshi chayqaldi "dod"la.
Gir aylanar mashhur raqqoslar,
Kiyimlari gazhar, olmoslar
Bilan ko'zni qamashtirardi,
Qiliqlari hirsni qo'zg'ardi.
Hali bazm boshlanishi bu,
Davom etib, avjga chiqar u,
Kecha bo'ylab ancha hangoma,
Qancha shovqin bo'lajak yana...
Yetim-esir to'la Xuroson,
Azjga chiqsan zulmdan fig'on:
Shahzodalar bir-biriga yov,
Bir-biridan ortiq el talov,
Sulton botgan ishratga mudom,
Buzuqilar boshida imom,
Bu majlisga begona shoir
Tuyg'ularin qilolmas zohir.
Yigitlikda chidadi nochor,
Endi qalbda o'zga zavqlar bor,
Bu aldamchi dabdabalaridan,
Shovqin-suron, hangomalardan
Qo'l siltamak uning murodi:
Ketsa o'zga bir diyor sari
Ilhomiga chuqur botaroq
Og'ir mehnat bilan yonaroq,
Surmak istar yaratish zavqin,
Eshitilmas u mastona shovqin!
Shoirga shoh "marhamat" qilib,
Chaqiradi, deydi kerilib:
- "Kurash qildi ikki pahlavon,
Desa bo'lgay ofarin jahon.
Qo'chqorlar ham yaxshi qildi jang,
G'ulg'uladan quloqlar garang.
Bo'lmadingiz, sizda yo'q shafqat"
Sultonga xos ablah shikoyat!
Shoir chiqdi, qalbni yoqar g'am,
Fikrlarni quchar jahannam.
Tun... Qoraga burkanib shahar
Uxlar edi tingandek kadar.
O'tar ekan bir mahalladan
Eshitdi u: kichik kulbadan
Birov go'zal bir ohang ila
Shoir she'rin o'qir ohista.

She'rlarining uzoq va yaqin
O'lkalarda shuhrat topganin
Bilar edi. Ammo, shu onda
Sevinch toshib ketdi bor qonda.
Kurashlarda orttirgan, beshak,
Butun umr ruh bergan istak
Jarangladi jo'r bo'lib sozga.
Ona tilni yetkizdi yozga,
Mo'l-ko'l to'kdi san'at mevasin,
Bo'honchining kesdi nafasini,
Yarashardi unga iftixor,
She'r ahliga bo'ldi bayroqdor.

1947

Haykal Oldida

Kuylagandi besh asr burun
Xalqni, haqni, ishqni bu inson,
Yuragi ham erkin, yorug' kun
Dardi bilan tepardi har on.
Ulug' Vatan ko'ksida shoir
Bugun qaddin ko'tardi baland:
Abadiy tosh libosmdadir,
Ko'lda kitob, ko'zlari o'ychan.
- Assalom, Navoiy! Ё Ё"deydi yosh avlod.

Olqishlaydi xalqi baxtiyor:
Shoir, arzir qilsang iftixor,
So'zing yangrar, ko'ngillarda yod.
Sen yuksaliding ulug' zamonda,
Rustaveli, Nizomiy, Pushkin;
Shevchenkolar tirik Vatanida,
Qara, hayot qanday shod, erkin
So'zlaringni sevar rus, qozoq,
Turkman, latish, gruzin, arman,
Bari sovet yerida inoq,
Boshlarida bir bayroq ulkan.
Kel Navoiy, xalq bilan birga
Gimn aytaylik shu Vataniga biz:
"Umring, nuring minglab asrga
Yetsin, Vatan - mangu faxrimiz!"

1949

* * *

Qamrovchi to'lqin bor, qamrovchi girdob...
Azamat tog'lar ham, kuylagan barg ham -
Uning dami sari aylaydi shitob,
Har nimada mavj bor - mazj tinmas bir dam Ё Ёh

1960

Xalq Qalbida

Lenin fikri inqilob, kurash
Otashida toblangan po'lat.
Uning fikri olamda quyosh,
Daryo-daryo nur to'kar behad.
Chayqalgan zo'r daryo mavji - u,
Ishchi, dehqon har on qoshida.
Kurash, to'lqin, yong'in - ishi bu,
Yer kurrasi uning boshida.
Ismi ko'hna jahon ustida
Bulutlarni yirtgan bir yashin.
Haqsizlarning har qarashida
Yodi yoqar umid otashin.
Xalq qalbida yuribdi tirik,
Mehnat - baxtda yaratib birlik.

1960

* * *

O'tirasani yolg'iz, yaproqlar tushar,
Bulutlar kezadi osmonda ko'rkam.
Parishon chehrangda xayollar uchar,
Bilmayman, nelarni o'ylaysan, erkam?!
Muncha ham yarashgan oq shohi ko'ylak,
Qoshlaringga qarab to'yamayman - hilol,

Yuzlaring yolqinidan o'rtanur garak,
Ko'zlaringda ko'rdim aql, his, xayol.
Oliy maktablarda riyoziyotdan
Dars beradi sodda, aqlli bu qiz,
Usuli go'zaldir, pishiq, olmosdan,
Shogirdlar qalbida yoqadi yulduz.
Qo'shnimiz yonma-yon, sog'inib har kez
Chiqaman, o'tirar qiz tutib qalam,
Kulaman: "Charchashni bilmaysan, yur tez,
Kezaylik, yoshlik ham bahorday ko'rkam.
Juda ham serdiqqat bu riyoziyot,
Ammo she'r boshqa, she'r qalbdan kelur!"
"Bu ham qalb va fikr mevasi, faqat
Mangudir,- deydi qiz,- koinot shudir!"
Muzokara davom etadi uzoq,
Falsafa, tarixdan atomga qadar,
Gapirar qiz dadil, mantiqi buloq,
Dalili, javobi o'tkir, naq gavhar.
Kech bo'ldi, ufqda yondi shu'lalar,
Ikkimiz qo'zg'aldik daryoni bo'ylab.
Uzoqda otlarni yuvar bolalar,
Qiz asta boradi - nimadir o'ylab.
Sevaman yurakdan, sevaman chindan,
Qiz sevar, bilmadim, g'ururi qo'ymas!
Bilmadim, sezgani boshqadir mendan,
Ishqim, muhabbatim o'zingsan, xolos!
Oqshom tepalarda, jarlarda yurdik,
Oy sekin orqadan yurar izma-iz.
Dam suhbat, dam sukut huzurin surdik,
O'ylayman: shu onda borliq - yolg'iz biz!
Soatga qarar qiz: "Ketamiz, ish ko'p,
Diplomni yoqlayman, borasizmi, a?"
Suyunib men deyman: "Jonim bilan, xo'p
Yozaman bir she'r, do'ndirib sizga..."
Qiz va men gaplashib, ketamiz asta,
Ichimda to'qiyman she'r rang-barang.
Eshikka yetganda kulib qiz: "Yana
Chiqingiz, xayr..." der muloyim ohang...
Qovlida yuraman qofiya izlab,
Daraxt ichida asta kezaman.
Yulduzlarga, oyga qarayman "uh!" lab,
She'rlar quyilur, ravon yozaman.
Sevgilim xayoli band etgan ko'ngul,
Oqarguncha sahar tinmay yuraman.
Go'zalim shu onda ne bilan mashg'ul?
Kuyoshni qarshilab, qizga shoshaman.
1960
* * *

Og'ir yer bag'irlab suzgan bulutga
To'satdan chaqmoqdan nayza sanchilar,
Men ham chaqmoq kabi tez chopdim uyga.
Ko'chaga kirganda yomg'ir qamchilar.
Tomosha qilaman kichik balkonda,
Yomg'ir ko'p shiddatli, asabiy yog'ar.
Daraxtlar chayqalur, boshlari yerda,
Guvillar dahshatli, mavhum shamollar,
So'ngra men zerikib she'r yozaman,
Yoki mutolaa yutadi meni,
Fazoga bulutlar osha uchaman,
Xayollar ketma-ket, rangli va yangi.
Yog'adi mo'l yomg'ir, yerlarda ko'puk,
Tunukani tozalab yuzadi suv, sel.
Mushugim hurrakda, ko'zlari suzuk,
Chiroqni o'chirdim - totli uyqu, kel!
Uyg'onib qarasam, quyosh yarqirar,
Hovliga tushaman kiyib to'nimni.
Zangori osmon ham tiniq, beg'ubor,
Musichalar g'uv-g'uv der, silkib bo'ynini.

Tentirab yuraman dalani kezib,
Tolaman xayolga, cho'pchak orzular.
Yozaman she'rlar xomaki chizib,
Bahorning kelini oltin varaqlar.

1960

* * *

Hijronning alami qalbimni yoqdi,
Yuraman devona, yuraman qushsiz.
Yoshligim misoli yulduzday oqdi,
Go'zalim, bir lahza kelgil, ikkimiz -
Kezaylik dalada, xayollar jo'shqin...
Daraxtlar ostida ikkimiz yolg'iz,
Ishkomlar ichida, ko'ngilda to'lqin,
Yursak may, ishqdan mast ikkimiz, ey qiz!
Sevgilim, shiyponda ikkimie tanho,
Quyoshda uchadi mezonlar mayin,
Tog'larda bulutlar xo'mraygan go'yo,
Ikkimiz suhbatda gox. shod, goh hazin,
Go'zalim, oppog'im, jononim, bir kel.
Men faqir kutaman, o, bir kelib-ket.
O'rgilay, bir zumda kelsang misli yel,
Kutaman yo'lingda, meni xursand et!

1960

* * *

Qalbdan sevgi toshdi, firoq, g'am-alam b'hh,
Yuraman, daydiyman, parcha cho'g' qallda.
Muhabbat dardida majnun mendan kam,
Go'zalim kelmadi, yonaman dardda.
Go'zalim bir keldi, ketdi nur kabi,
Ko'nglim va ko'zlarim qoldi izida.
Qo'lida "Fuzuliy" - sevgan kitobi,
Oq shoyi ko'ylakda, to'lqin ko'ksida.
Ko'zlari ma'nodor, hislari yoniq,
Kulgisi samimiy, o'ylari chuqur.
So'zi, qiliqlari yoqimli, aniq,
Yalindim; hujramda ozgina o'tir.
"Tashakkur, men ketdim", - qoldi tzbassum...
Yorimning ketidan shamolday chopdim.
Qaygadir yo'q bo'ldi, yig'ladim yum-yum
Ey, go'zal, yo'lingda, ishqingda yondim...

1960

Kuzda

Ketaman tentirab tanho yo'llarda,
Daraxtlar go'yoki mash'aldek yoniq.
Kuz ko'rkam yashnaydi xil-xil ranglarda.
Shaftoli barglari yonar oltinday,
O'rikda qirmizi yoqut shu'lalar.
Shu'lalarning raqsi bargda, novdada.
Suvlar oqar sekin, shishaday tiniq,
Osmon cho'kib olgan suvlarga go'yo.
Hazoga to'ymayman, nafasi iliq...
O, azim chinorlar, naqadar ko'rkam,
To'xtayman o'ylanib: "Oltinlanibdi,
Umri asrlardir, ildizi mahkam..."
Qisqardi kunlar ham, uchadi mezon,
Alvido, deb qushlar boshladi safar,
Yaproqlar to'kilor,.. yig'laydi xazon...
Olmalar yonog'i qip-qizil yoqut,
Arava, mashina tashir shaharga,
Sovetlar elida - mo'l, baraka, qut!
Toklarda rang-barang totli uzumlar,
Tillarni yoradi bol kabi shirin:
Xushbo'y may ichganday go'yo tuyular.
Yuraman xayolda, o'tar kunduzi,
Daraxtlar turadi yoniq mash'alday.
Kechqurun yo'limda oqshom yulduzi...

1960

* * *

O'tirur supada, qo'lida kitob,
Xayoli keng daryo, yorim oftob...
"Olamning siri,- der,- ilm, ma'rifat".
"Tanbur, may - koinot!" qildim men xitob.
1965, avgust
* * *

Bahor keldi - kumush rang kimxob,
Daraxtlar oppoq gulda - mash'al.
Bol terilur gul qadahlardan
Gul fasli - bahor fasli,.. oftob...
Gul fasli, nur fasli chaqnaydi,
Yangrar qo'shiq havoda, ko'kda.
Qirlar gulgun, lolalarga g'arq,
Lolalardpn gilam ko'k o'tda.
Parcha bulut to'kilib ketdi
Duv quyildi marvarid yomg'ir.
"Bo'ri tug'di", chaqnaydi kulgu,
Yalang oyoq bolalarga huzur.
Bog'-qirlardan chopar shiyponga,
"Bo'ri tug'di" - kulib kattalar.
Zum o'tmasdan tinadi yomg'ir,
Achinadi chopqir bolalar.
Ariqlarda, soylarda toshqin,
Daraxtlar-da gullardan toshqin,
Bahor keldi, gul fasli keldi,
Ko'ngillarda sevinchlar toshqin.
1965, aprel'
* * *

Go'zal xulq gavhardir, aslo bo'lmas xor,
Hayot ildizida undan bir nur bor.
Haqiqat va axloq yaqin tug'ishgan,
O'g'lim, o'yla, umr o'tmasin bekor.
1965, may
* * *

Tabiat tilsimin tubi yo'q, behad,
O'g'lim, ilm o'rgan, yemrilur har sad.
O, umr kaltadir, naq qush uyqusi,
Haqiqat dasturin top, qolsin zar xat,
1965, may
* * *

Yorimning qora ko'zi - oftobi bordir,
Ishq dardi boshimga bitgan balodir,
Shoirlar mahbub, may desa kulardim,
Menim ham dil endi band mubtalodir.
1965, may
* * *

O, ko'ngil, cheksizdir, tubi yo'q jahon,
Sirlar va tilsimlar konidir osmon,
Nimadir olamning sir falsafasi?
Ey ko'ngil, sen hal et! Mushkilim hamon!
1965, avgust
* * *

Sirli yo'llar bosib, kezaman osmon,
O'ylayman, o'ylayman, sira bilmayman,
Osmonga sepilgan olgindan somon.
Hakiqat nimadir, o'ylayman hamon
1965, avgust
* * *

Kechqurun yor keldi, bog' yashnar go'zal,
Supada yozdi u latif bir g'azal.
Men dedim shoira, tasviri naq may!
Boshlandi ulfatlik, qalqdi oy - mash'al!.,
1965, avgust
* * *

Oqshom keldi ilhom, qo'lda gul jonon,
Ko'zlarda nur, sochda gavhar, hayajon...
Men yolg'izdim tunda, sokin hujrada,
Kuyuldi she'r, may - keldi bir jahon

This is not registered version of TotalDocConverter

1965, avgust

* * *

Yoshlik bir g'unchadir, yo'ldoshi sevgi,
Yurakda yolqini saqlansa mangu,
Vafo derlar buni, azizroq ne bor?
Karilik ham oydin, ishqimiz mangu
1965, avgust

* * *

Hasratlar ko'ngildan ketgan zamonda
Tabiat mudraydi, allalar bahor.
Ko'klardan jimgina oltin nur yog'ar,
Har narsa ulfatdir menga shu onda...
1965

* * *

Tarix va falsafa chuqur, murakkab,
Hayot mash'alidur haqiqat, chin gap,
Ijodning bulog'i tinimsiz oqsin:
Ming sir bor tuproqda - olsangiz bir kaft.
1965, avgust